

CECR mezonlari asosida baholash tamoyillarini joriy qilish masalalari

Nortoyeva Nodiraxon Muxammadaliyevna
nodiran@mail.ru
O'qituvchi
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya. Mazkur maqola “CECR mezonlari asosida baholash tamoyillarini joriy qilish masalalari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, fransuz tilini chet tili sifatida o‘qitish, o‘rganish va baholash mezonlari tahlil qilingan. Ma‘lumki, CECRL – bu Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan tizim bo‘lib, u turli tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash uchun xalqaro mezonlarni belgilaydi. Ushbu tizim A1 dan C2 gacha bo‘lgan 6 darajani o‘z ichiga oladi va til o‘rganishning barcha jihatlarini baholashga yordam beradi. CECRL mezonlarini O‘zbekiston ta‘lim tizimiga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda va bunga kompleks yondashuv talab etiladi. Maqolada o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va baholash tizimini takomillashtirish ushbu jarayonda muhim rol ekanligi ta‘kidlangan. O‘zbekistonning xalqaro maydonda til ta‘limi bo‘yicha yuqori natijalarga erishishi ushbu islohotlarning samaradorligiga bog‘liqdir. Shu sababli, CEFR tamoyillarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etish orqali til o‘rgatuvchilarning ish samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning til kompetensiyalarini tizimli baholashga erishish mumkin.

Kalit so‘zlar: Yevropa Kengashi, CEFR, Baholash jadvali, og‘zaki va yozma kompetensiyalar, baholash tamoyillari, test savollari

Вопросы внедрения принципов оценки на основе критериев CEFR

Нортыева Нодирахон Мухаммадалиевна
Преподаватель
nodiran@mail.ru
Андижанский государственный институт иностранных языков

Аннотация. Данная статья посвящена теме «Внедрение принципов оценки на основе критериев CEFR» и анализирует критерии обучения, изучения и оценки французского языка как иностранного. Известно, что CEFR – это система, разработанная Советом Европы, которая определяет международные критерии изучения, преподавания и оценки различных языков. Данная система включает 6 уровней от A1 до C2 и помогает оценивать все аспекты изучения языка. Критерии CEFR успешно внедряются в систему образования Узбекистана, что требует комплексного подхода. В статье подчеркивается важность подготовки преподавателей, разработки учебных материалов и совершенствования системы оценки в этом процессе. Достижение высоких результатов Узбекистаном в области языкового образования на международной арене зависит от эффективности данных реформ. Таким образом, внедрение принципов CEFR в образовательный процесс позволяет повысить эффективность работы преподавателей и системно оценивать языковые компетенции учащихся.

Ключевые слова: Совет Европы, CEFR, шкала оценки, устные и письменные компетенции, принципы оценки, тестовые вопросы.

Issues of Implementing Assessment Principles Based on CEFR Criteria

Nortoyeva Nodiraxon Mukhammadaliyevna
nodiran@mail.ru

Lecturer
Andijan State Institute of Foreign Languages

Annotation. *This article is dedicated to the topic "Implementation of Assessment Principles Based on CEFR Criteria" and analyzes the criteria for teaching, learning, and assessing French as a foreign language. It is well known that CEFR is a system developed by the Council of Europe, which establishes international standards for language learning, teaching, and assessment. This system includes six levels, from A1 to C2, and helps evaluate all aspects of language acquisition. CEFR criteria are being successfully integrated into Uzbekistan's education system, requiring a comprehensive approach. The article emphasizes the importance of teacher training, the development of educational materials, and the improvement of the assessment system in this process. Uzbekistan's achievement of high results in language education on the international stage depends on the effectiveness of these reforms. Thus, the implementation of CEFR principles in the educational process enhances the efficiency of teachers' work and enables a systematic evaluation of students' language competencies.*

Keywords: *Council of Europe, CEFR, assessment scale, oral and written competencies, assessment principles, test questions.*

Kirish. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa tillari umumiy ma'lumot doirasi (CEFR) Yevropada chet tillarni o'rganish va o'qitishda shaffoflik va izchillikni ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. CEFR til o'rganuvchilarning og'zaki va yozma kompetensiyalarini baholash uchun asosiy vosita sifatida qabul qilingan. FLE (frantsuz tili chet tili sifatida) ni baholash amaliy didaktika lug'atida quyidagicha ta'riflanadi: "En didactique du FLE, l'évaluation consiste à mesurer ou juger de leurs performances les compétences orales et écrites des apprenants placés dans des situations de communication, puisque l'objectif de l'apprentissage du français est d'apprendre à communiquer" (Conseil de l'Europe, 2001).

Baholash jarayonida mezonlarning qo'llanilishi CECR mezonlari DELF/DALF, TOEFL, IELTS kabi standartlashtirilgan testlarda qo'llaniladi. Ushbu imtihonlar nomzodlarning til kompetensiyalarini CECR tavsiflagan darajalar bilan mos keladigan tarzda baholash uchun ishlab chiqilgan (Beyer, 2012). Shuni aytish sifatida aytish mumkinki, CECR ning qo'llanilishi til o'qitish jarayonini o'zgartirdi, chunki u kommunikativ yondashuv va aniq o'quv maqsadlarini ilgari suradi. Bu esa o'qituvchilarga aniq kutishlarni belgilash va o'quvchilarga o'z rivojlanish darajasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. CECR darajalari til o'qitish va baholash uchun muhim vosita hisoblanadi. U umumiy baholash mezonlarini taqdim etib, xalqaro miqyosda til o'rganish jarayonining shaffofligi va izchilligini oshiradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda CEFR asosida baholash usullari, test turlari va baholash jadvali (grille d'évaluation)ning samaradorligi ko'rib chiqiladi. CEFRning til o'qitish jarayoniga kiritilishi ta'lim tizimiga qanday ta'sir qilgani tahlil qilinadi. Ingliz tilida CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) mezonlari asosida baholash tamoyillarini joriy qilish masalalarini o'rgangan chet ellik olimlar ishlari o'rganildi. Masalan, Brian North: CEFRning asoschilaridan biri bo'lib, til o'rganish va baholashda xalqaro standartlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan, John Trim: CEFRning rivojlanishida katta hissa qo'shgan tilshunos, Yevropa Kengashi bilan hamkorlikda til ta'limi siyosatini shakllantirishda ishtirok etgan, Daniel Coste: CEFRni ishlab chiqishda ishtirok etgan frantsuz tilshunosi, til o'qitish va baholash metodologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan (Bento, 2012).

Natijalar va Tahlil. CEFR asosida baholashning asosiy vositalaridan biri test bo'lib, u o'quvchilarning dasturda oldingi va keyingi bilim darajasini solishtirish imkonini beradi. Ushbu test ikki qismdan iborat:

1. *Nazariy qism* – Bilimlarni tekshiruvchi test.
2. *Amaliy qism* – Didaktik ko'nikmalarni aniqlash.

Testning asosiy maqsadlari quyidagicha:

- O‘quvchilarning dasturdan oldingi va keyingi bilim darajasini solishtirish.
- Ta’lim maqsadlariga erishilganligini aniqlash.
- Ta’lim metodlarini yaxshilash va moslashtirish.

CEFR asosida ishlab chiqilgan testlarda yopiq test savollari (**QCM – choix multiples**) ishlatiladi, chunki ular obyektivlik, ishonchlilik va haqiqiylik mezonlariga javob beradi (Curta, 2010).

Test savollari ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga rioya qilindi:

- Pedagogik vaziyatlarga asoslangan bo‘lishi.
- Tushunarli va aniq shaklda ifodalangan bo‘lishi.
- Noto‘g‘ri javob variantlari (distraktorlar) ishonarli bo‘lishi.
- Chalg‘ituvchi variantlarning uzunligi bir xil bo‘lishi.

Baholash Jadvali (Grille d’évaluation)

Baholash jadvali murakkab topshiriqlarni baholashda ishlatiladi va subyektivlikni kamaytirish imkonini beradi. U o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash (**auto-évaluation**) va o‘zaro baholash (**co-évaluation**) imkoniyatlarini oshiradi.

Baholash jadvali yaratish bosqichlari quyidagilar:

1. **Maqsadni aniqlash** – Qaysi til faoliyatini baholash uchun mo‘ljallanganligini belgilash.
2. **Baholash mezonlarini tanlash** – CEFR talablari asosida asosiy mezonlarni belgilash (grammatik to‘g‘rilik, lug‘aviy boylik, izchillik, tushunarlilik va h.k.).
3. **Har bir mezon uchun daraja shkalasini ishlab chiqish** – A1/A2/B1 darajalari uchun tavsiflar ishlab chiqish.
4. **Aniq ball berish tizimini yaratish** – Har bir mezon bo‘yicha baho berish uchun ball shkalasini belgilash (masalan, 0 dan 5 gacha).
5. **Sinov va moslashtirish** – Jadvalni kichik guruhda sinab ko‘rish va kerak bo‘lsa, tuzatishlar kiritish.

6. **Rasmiy tasdiqlash va qo‘llash** – Jadvalni baholash jarayonida qo‘llash.

Baholash jadvali tarkibida quyidagi asosiy yo‘nalishlar mavjud:

- *Testni taqdim etish* (Présenter le test)
- *O‘qib tushunishni baholash* (Évaluer la compréhension de l’écrit)
- *Eshitib tushunishni baholash* (Évaluer la compréhension de l’oral)
- *Yozma nutqni baholash* (Évaluer la production écrite)
- *Og‘zaki nutqni baholash* (Évaluer la production orale)

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha test tarkibi sifat mezonlariga ajratiladi va indikatorlar orqali baholanadi. Har bir indikator ahamiyat darajasiga qarab ball tizimi bilan baholanadi. Ushbu yo‘nalishlar test tuzish uchun zarur bo‘lgan sub-kompetensiyalar asosida sifat mezonlariga ajratiladi. Bu sifat mezonlari kuzatilishi mumkin bo‘lgan elementlar yoki indikatorlar orqali baholanadi. Har bir indikatorning ahamiyat darajasiga qarab unga tegishli ball beriladi.

Yaroqlilik (Validité) :

Baholash jadvalining yaroqliligi fransuz tili didaktikasi bo‘yicha universitet professorlaridan iborat hay‘at tomonidan tekshirilgan. Ular quyidagilarni baholashgan:

- ✓ Taklif qilingan kompetensiyalarni baholashga mos kelishi.
- ✓ Dastur maqsadlari va pedagogik bosqichlar bilan uyg‘unligi.
- ✓ Baholash mezonlarining ustuvorligi va ularga berilgan ballarning mantiqiyliqi.

Hay‘atning tavsiyalariga ko‘ra, mezonlar haddan tashqari ko‘p bo‘lgani uchun baholash jarayoni juda murakkablashgan. Shu sababli, yanada umumiy yondashuv qabul qilinib, faqat asosiy elementlarga e’tibor qaratildi.

Ishonchlilik (Fidélité) :

Baholash jadvalining ishonchliligini o‘lchash uchun inter-juges (bir nechta baholovchilar ishtirokidagi baholash usuli) qo‘llaniladi. Ushbu metodda test ma’lum nafar ekspert o‘qituvchidan

iborat guruh tomonidan namunaga qo'llaniladi. Baholash jarayoni asosiy dars beruvchining hamkasbi tomonidan baholash jadvallari yordamida amalga oshiriladi. Bu usul jadvalning natijalarini barqaror va ishonchli ekanligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Baholashning yuqori darajalarida frazeologik terminlarni ishlatish, ularni situasialarda yangi variantlarini qanday qo'llashiga e'tibor berib, yuqori baholar beriladi (Hoptroeva, 2024). Fikrlarimizni xulosa qilib shuni ayta olamizki, Yevropa tillari umumiy ma'lumot doirasi (CECR) jonli tillar bo'yicha o'quv dasturlari, mezonlar, imtihonlar, darsliklar va boshqa materiallarni ishlab chiqish uchun umumiy asosni taqdim etadi. U til o'rganuvchilar muloqot qilish uchun tilni qanday o'rganishi kerakligini iloji boricha to'liq tavsiflab beradi (Muhammadaliyevna, 2024). Shuningdek, u o'quvchilar samarali til kompetensiyasiga ega bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

CECR o'quvchining har bir bosqichdagi rivojlanishini baholash va har qanday yoshda til o'rganish jarayonini o'lchash imkonini beruvchi kompetensiya darajalarini belgilaydi.

Xulosa. Baholash jadvalining ishonchliligini o'lchash uchun inter-juges (bir nechta baholovchilar ishtirokidagi baholash usuli) qo'llaniladi. Ushbu metodda test ma'lum nafar ekspert o'qituvchidan iborat guruh tomonidan namunaga qo'llaniladi. Baholash jarayoni asosiy dars beruvchining hamkasbi tomonidan baholash jadvallari yordamida amalga oshiriladi. Bu usul jadvalning natijalarini barqaror va ishonchli ekanligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Fikrlarimizni xulosa qilib shuni ayta olamizki, Yevropa tillari umumiy ma'lumot doirasi (CECR) jonli tillar bo'yicha o'quv dasturlari, mezonlar, imtihonlar, darsliklar va boshqa materiallarni ishlab chiqish uchun umumiy asosni taqdim etadi. U til o'rganuvchilar muloqot qilish uchun tilni qanday o'rganishi kerakligini iloji boricha to'liq tavsiflab beradi. Shuningdek, u o'quvchilar samarali til kompetensiyasiga ega bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

CEFR til o'rganuvchilarning kompetensiyalarini baholashda samarali mezonlar tizimini taqdim etadi. Test va baholash jadvali orqali ta'lim jarayonini obyektiv baholash, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniq aniqlash mumkin bo'ladi. CEFR tamoyillarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali til o'rgatuvchilarning ish samaradorligini oshirish va o'quvchilarning til kompetensiyalarini tizimli baholashga erishish mumkin. Shunday qilib, CECR til va madaniy kompetensiyalarni baholash uchun umumiy mezonlar ishlab chiqadi. Bu yondashuv olingan bilim va ko'nikmalarning rasmiy tan olinishini osonlashtiradi hamda o'quv jarayonida harakatchanlikni ta'minlaydi. CECR o'qituvchidan baholash tizimini yaratish uchun zarur bo'lgan tushunchalar va mezonlarni o'zlashtirishni talab qiladi. Baholashga bag'ishlangan bo'limda 13 xil baholash turi hamda testlarni ishlab chiqishda muhim bo'lgan ishonchlilik (fidélité), haqiqiylik (validité) va obyektivlik (objectivité) kabi mezonlar bayon etilgan. Ushbu tushunchalarni amalda qo'llash o'qituvchidan doimiy ravishda mustaqil o'rganish va o'z ustida ishlashni talab qiladi. CECR o'qituvchilarga nimani o'rgatishlari kerakligini aniq tushunishga yordam berishi kerak. U ta'lim dasturlarida ta'kidlangan o'rganish va muloqot strategiyalarini tavsiflab, ularning rivojlanishi va baholashini ta'minlaydi. Shuningdek, CECR o'qituvchilarga aniq nazariy asos va til sifatini baholash uchun zarur bo'lgan sifat mezonlarini taqdim etadi. CECR turli til faoliyatlarini farqlash va ularning darajalarini baholash uchun tegishli mezonlarni taklif qilish orqali o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yaxshiroq tuzishda yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bento, M. (2012). L'évaluation des langues dans une perspective actionnelle. *Les Langues modernes*, 1, 12-17. Paris: APLV.
2. Beyer, M.M. (2012). Évaluation des compétences langagières au collège et au lycée: Quelles alternatives? *Synergies Pays Scandinaves*, 7, 1-10.
3. Conseil de l'Europe. (2001). *Cadre européen commun de référence pour les langues: Apprendre, enseigner, évaluer*. Paris: Didier.
4. Curta, A. (2010). La classe de langue vivante étrangère: Nouvelles apparences, anciens fonds. *The Journal of Linguistic and Intercultural Education (JoLIE)*, 3, 34-42.

5. Kamariddinova, M.E. The role of intercultural communication in the training for future specialist of different fields. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 2, 169.
6. Muhammadaliyeva, N.N. (2024). Fransuz tilida ikkiramchi frazeologik birliklar yasalishining o'ziga xos xususiyatlari. *Journal of Language and Linguistics*, 7(1), 67-70.
7. Mukhammadaliyeva, N.N. (2024). The theory of phraseological derivatives: Concept, research, prospects. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(05), 672-674.
8. Нортоева, Н.М. (2024). СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ДЕРИВАТОВ. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(09), 27-28.